

TRAKTORLARNING TASNIFI VA ASOSIY QISMLARI

Xabibullo Xusanov Salohiddin o'g'li¹

¹ Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti, Agroiinjeneriya va
Gidromelioratsiya fakulteti, Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish yo'nalishi 2 bosqich
talabasi

MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:28.10.2024

Revised: 29.10.2024

Accepted:30.10.2024

KALIT SO'ZLAR:

traktor, qishloq
xo'jaligi, strategiya,
dvigatel, agrotexnika

*Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida texnikaning
o'rni haqida qayd etilgan. Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalashtirish maqsadida traktor
avtomobillarining tashkil etilganligi haqida
ma'lumot berilgan. Shuningdek, traktor
avtomobillarning tasnifi hamda asosiy qismlari
haqida fikr-mulohazalar bildirilgan*

KIRISH. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'plab yetishtirish, hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini kamaytirish mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omillaridan biri-kompleks mexanizatsiyalashtirishdir. Qishloq xo'jaligini isloh qilishning o'zbek modeli xalqimizni turmush sharoitini, an'alarini, urf-odatlarini, turmush tarzini hisobga olishga asoslanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror, bozor iqtisodiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolikni barpo etishdan iboratdir.

1-bosqich. Islohotlar strategiyasi, iqtisodiy islohotlar-huquqiy negizi, mulkka bo'lgan munosabatlarni o'zgartirish. Kichik korxonalarni xususiylashtirish.

2-bosqich. Jamiyatimiz iqtisodiy va ijtimoiy hayotining hamma tomonlarini isloh qilishdan iborat. Moliya, soliq, pul, kredit siyosatini takomillashtirish.

1998-2000 yillardagi qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturi. Xususiylashtirish natijasida 1998-yil jami qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar hajmining 98,5 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keladi. Dasturning asosiy vazifasi: 1). Haqiqiy mulkdorlar safini shakllantirish. 2). Dehqonlarga, erga egalik qilish hissini uyg'otish, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish. 3). Shirkat, fermer va dehqon

xo'jaliklarini tashkil etish. 4). Mulkiy paylar asosida dividend to'lashga erishish. 5). Dehqonchilik madaniyatini, tuproq unumdorligini oshirish, eroziya, sho'rlanishga qarshi choralar ko'rish. 6). Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish. 7). Seleksiya va urug'chilikni rivojlantirish, chorva naslchiligini yaxshilash. Vazirlar Mahkamasi qishloq xo'jaligi mexanizatsiyasini takomillashtirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qildi:

1. 1995 yil 25-yanvarda Mashina-traktor parkini tuzish to'g'risidagi qarori.

2. 1995 yil "qishloqxolding" birlashmasini tuzish qarori.

3. 1996 yil "UzKeysservis" tashkilotini tuzish qarori.

4. 1996 yil 25-iyul "Zamonaviy texnika bilan qishloq xo'jaligini ta'minlash to'g'risidagi qarori.

5. 1998 yil 410 qarori "Qishloq xo'jalik texnikalariga mablag' ajratish".

Bu qarorlar asosida tumanlarda bittadan mashina-traktor parki va viloyatlarda bittadan "KEYS servis" filiallari ochilishi kerak. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda asosan energetika vositasi sifatida yuqori quvvatga ega bo'lgan tezyurar traktorlardan foydalanish zarur. Transport sohasida esa yuqori yuk ko'taradigan dizel dvigateli o'rnatilgan avtomobillardan foydalanish zarur. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida quyidagi energetika vositalaridan foydalaniladi: 1. Traktorlar; 2. Avtomobillar; 3. Elektr energiyasi; 4. Stasionar dvigatellar.

Traktor grekcha so'zdan olingan bo'lib, sudragich yoki yuritgich ma'nosini bildiradi. Traktor va avtomobillarni biror ixtirochi butunlay kashf etgan emas. Ixtirochilar, olimlar va injeneria XVIII asrdayoq relssiz yuradigan transportlar yaratishga asos sola boshladilar. 1752 yili Nijegorod gubernatorining dehqoni Shamshurenkov "o'zi yurar kolyaska" yasaydi.

So'nggi yillarda bug' mashinasi, ichki yonuv dvigateli, gusenitsali va g'iidirakli traktorlar ixtiro qilinadi. 1969 yildan boshlab Toshkent traktor zavodi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib paxtachilikka ixtisoslashtirilgan G-24X4, T- 28X4M, T-28X4MA universal chopiq traktorlarni ishlab chiqara boshladi. 1976 yildan boshlab Minsk traktor zavodi bilan hamkorlikda MTZ-80X uch g'ildirakli paxtachilikka mo'ljallangan universal-chopiq traktorlarni ishlab chiqara boshladi. Respublikamiz qishloq xo'jaligi uchun yuqori quvvatli, tezyurar, tejamkor, ish unumdorligi yuqori bo'lgan traktorlar zarur. Shu maqsadda Amerikaning "Keys" firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. "Magnium" traktorlari dehqonchilikda qo'llanila boshladi. 1. Dvigatel quvvati 42 315 ot kuchiga teng bo'lgan "Keys" firmasi 320(1:5120:7200) tang'al "Magniam nomi bilan ishlab chiqarilgan. Traktorlarga "Kaminis" firmasi ishlab chiqargan dvigatellar o'rnatilgan. Bu dvigatellar juda

ixcham, massasi kichik, yonilg'i sarfi tejamliligi bilan farq qiladi. 1996 yildan boshlab Toshkent traktor zavodi Angliyaning "Kaminis" va Amerkaning "Keys" firmasi bilan hamkorlikda traktorlar ishlab chiqara boshladi. Zavod Davlat aksiyadorlik jamiyatiga (DAJ) o'tgandan so'ng traktor ishlab chiqarishda tub o'zgartirishlar yaratdi.

Fermer xo'jaliklar uchun kichik gabaritli kam yoqilg'i sarf qiladigan TTZ-30. va NT-30 traktorlari ishlab chiqara boshladi. T-28X4M traktorlar o'rniga TTZ-100.10 4 g'ildirakli va TTZ-100.11 3 g'ildirakli traktorlar ishlab chiqara boshladi. Bu traktorlarga 92 ot kuchiga ega bo'lgan Amerikaning «Kaminis» firmasi ishlab chiqargan dvigatellar o'rnatilgan. "O'zKeys traktor» qo'shma korxona va TTZ «DAJ» (davlat Aksiyanerlik Jamiyati) ishlab chiqargan MX-100 universal-chopiq paxtachilik traktori (3 g'ildirakli), MXR-135 paxtachilik traktori (4 g'ildirakli, barcha g'ildiraklari yetaklovchi) va MX-135 universal-chopiq traktorlarini ishlab chiqarmoqda. Shu kunlarga respublika dalalarida 4254 ta haydov traktorlari, 1946 ta Magnum traktori: 2022 ta T-4A Altay traktori: 261 ta DT-75 traktor va 46 ta Maksum traktorlar ishlamoqda, g'ildirakli universal-chopiq traktorlari ham ko'p miqdorni tashkil qiladi. "Keys" traktorlari Toshkent traktor zavodida paxtachilikka moslashtirilib, orqa ko'prigiga oxirgi uzatmaga o'rnatilib, agrotexnika masofasi, g'ildirak oralig'i o'zgartiriladigan qilib qayta ishlab chiqarilmoqda. Unga "Keys 52ZOX" marka qo'yilib "Jahongir" nomi bilan ishlab chiqarilmoqda. Yaqin kelajakda 92- 100 ot kuchi quvvatli dvigatellar o'rnatilib, 4240 marka bilan ishlab chiqariladi. Traktorlar 2 xil maqsadda ishlab chiqariladi: 1. Qishloq xo'jalik traktorlari. 2. Sanoat traktorlari.

Qishloq xo'jalik traktorlari vazifasiga ko'ra 3 xil bo'ladi:

1. Umumiy ishlarga mo'ljallangan (haydov) traktorlari (T-4A; T-100M; K-701).
2. Universal-chopiq traktorlar (T-28x4, MTZ-80X).
3. Maxsus traktorlar (DT-75B)

Yurish qismini xiliga ko'ra: 1. g'ildirakli traktorlar (MTZ-80: T-421). 2. Zanjirli traktorlar (T-4A: DT-75M). Asosi(ostov)ni tuzilishiga ko'ra: 1. Romali traktorlar (DT-75M: K-701); 2. Yarim ramali traktorlar (T-40A: MTZ-80); 3. Ramasiz traktorlar (Rioni-2: T-14K). Normal tortish kuchiga qarab qishloq xo'jalik traktorlari tuzilishi jihatidan bir- biridan farq qiladigan to'qqiz klassga bo'linadi. Tortish kuchi-traktorning eng kichik ish tezligida (1 tezlik) ishlaganda ilmog'ida hosil etadigan kuchga aytiladi.. U tonna yoki (kN), bilan o'lchanadi 0,21 (2kN); 0,6t (6kN); 0,9t (9kN); 1,4t (14kN); 2,01 (20kN); 3,01 (30kN); 4,01 (40kN); 5,01 (5GkN); 6,0 (bOkN); tortish kuchiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik traktorlari ishlab chiqariladi.

Traktor va avtomobillar ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lgan turli guruhdagi mexanizmlardan iborat murakkab mashinadir. Traktorlar quyidagi asosiy guruhlarga bo'lib o'rganiladi: Dvigatel, transmissiya (kuch uzatmasi), yurish qismi, boshqarish mexanizmlari, ish va yordamchi jihozlar. Dvigatel-issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantiradi.

Transmissiya-dvigatelni burovchi momentini yetaklovchi g'ildirakka (yulduzchaga) uzatuvchi hamda yetaklovchi g'ildiraklarning aylanish tezligi va yo'nalishini o'zgartiruvchi mexanizm yig'indilaridan iboratdir. Transmissiya-tishlashish muftasi, qo'shish vali (oraliq val), uzatmalar qutisi, bosh uzatma, differensial (boshqarish mexanizmi) va oxirgi uzatmadan iboratdir. Yurish qismi yetaklovchi g'ildirakning aylanma harakatini traktorning ilgariylanma harakatiga aylantirish uchun xizmat qiladi. Boshqarish mexanizmlari-yurish qismlariga ta'sir ko'rsatib, traktorning harakat yo'nalishini o'zgartiradi, uni to'xtadi va qo'zg'almas holda tutib turadi.

Traktor va avtomobillar qishloq xo'jaligi va transport sohalarida muhim rol o'ynaydi. Ularning tasnifi va asosiy qismlari quyidagicha:

Traktorlar tasnifi

1. Ishlab chiqarish maqsadi bo'yicha:

- Qishloq xo'jalik traktorlar: Ekin ekish, yig'ish, tuproqni ishlov berish uchun mo'ljallangan.
- Sanoat traktorlar: Sanoat sohalarida, masalan, qurilishda foydalaniladi.
- Maxsus traktorlar: Muayyan vazifalar uchun mo'ljallangan (masalan, bog'dorchilik yoki issiqxonalar uchun).

2. Quvvatiga ko'ra:

- Kichik quvvatli traktorlar: 25-50 ot kuchiga ega.
- O'rta quvvatli traktorlar: 50-100 ot kuchi.
- Katta quvvatli traktorlar: 100 ot kuchidan yuqori.

3. Tizimiga ko'ra:

- Yerdan tortiladigan traktorlar: O'zining kuchi bilan boshqa mashinalarni tortadi.
- O'z-o'zidan harakatlanuvchi traktorlar: O'zining dvigateliga ega va mustaqil harakatlanadi.

Traktorning asosiy qismlari:

1. Dvigatel: Traktorning energiya manbai.
 2. Transmissiya: Dvigatelning kuchini g'ildiraklarga o'tkazadi.
 3. G'ildiraklar: Harakatni ta'minlaydi; old va orqa g'ildiraklar mavjud.
 4. Tuproqqa ishlov berish qurilmalari: Plugalash, diskli plitalar va boshqalar.
-

5. Kabina: Haydovchini himoya qiladi va qulaylik yaratadi.

Avtomobillar asosiy qismlari:

1. Dvigatel: Avtomobilning asosiy energiya manbai.
2. Transmissiya: Kuchni g'ildiraklarga o'tkazish tizimi (avtomatik yoki mexanik).
3. Suspensiya: Yo'lning notekisligini kamaytiradi va qulaylikni ta'minlaydi.
4. Tormoz tizimi: Avtomobilni to'xtatish yoki tezligini kamaytirish uchun.
5. G'ildiraklar va shinalar: Harakatni ta'minlaydi va yo'l bilan aloqa qiladi.

Traktor va avtomobillar qishloq xo'jaligi va transport sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning to'g'ri ishlatilishi samaradorlikni oshiradi.

Xulosa;Eski traktorlardan zamonaviygacha bo'lgan evolyutsiya dizayn, texnologiya, samaradorlik va barqarorlikdagi sezilarli yutuqlarni ko'rsatadi. Eski traktorlar qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash uchun zamin yaratgan bo'lsa-da, zamonaviy traktorlar zamonaviy dehqonchilik muammolarini, jumladan, hosildorlikni oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun jihozlangan. Bu farqlarni tushunish fermerlarga o'z texnikalari haqida to'g'ri qaror qabul qilishda yordam beradi va ularning qishloq xo'jaligining kelajagi uchun yaxshi jihozlangan bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. Shoumarova M. Abdullayev T. Qishloq xo'jaligi mashinalari. Toshkent, O'qituvchi 2002Y.
2. A.I. Komilov, Q.A. Sharipov, N.T. Umarov, L.M.Marupov, R.T. Rustamov Traktor va avtomobillar. Toshkent «Talkin» -2003.(lotin alifbosida)
3. F.B. Yevdokimov, Umumiy umumiy elektrotexnika elektro T.O T.O'qituvchi. 1995.
4. N.I.Vershagin Organizatsiya texnologiya mexanizirovannix rabot v rastenivodstve, Ucheb, posb Ne IRPO; Izd.sentr «Akademiya», 2000
5. E.Oyxojayev, X.Qo'shnazarov Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash Toshkent «Mehnat», 1988.
- 6.A.I. Karpenko, M.V.Xalinskoy , Selskoxozeystvennyye mashiny M.: 1999g.
7. Multimediya darslik, Qishloq xo'jaligi mashinalari (lotinalifbosida)
8. O.K.O'rinboyev va boshqalar. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash (Ma'ruzalar matni) Toshkent 2005.
- 9.Y.U. Naumov. Mashtra traktor parkidan foydalanish. Toshkent 1988
10. L.B.Kolesov va boshqalar Qishloq xo'jalik agregatlari hamda ustanovkalarining elektr jihozlari va avtomatlashtirish Toshkent o'qituvchi 1986 yil.